

ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA SO'Z VA OBRAZNING BADIY-ESTETIK MOHIYATI

Pirmatova Shohista Mahmudovna

Qashqadaryo viloyati pedagogik mahorat markazi matbuot kotibi

Annotatsiya. Mazkur maqola Abdulla Oripov she'riyatidagi so'z va obrazning badiy-estetik mohiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Unda shoirning poetik nutqida so'zning obraz yaratishdagi funksiyasi, o'xshatish, qarshilantirish, metafora, aforizmlar va boshqa badiiy san'atlarning qo'llanilishi tahlil qilinadi. Maqolada A. Oripov she'rlarida so'z va obrazning uzviy bog'liqligi, ularning shoir g'oyasini ifodalashdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, xalq maqollari, ramzlar va timsollardan foydalanish orqali badiiy obrazlarning chuqur ma'nolar kasb etgani ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari A. Oripov she'riyatidagi poetik mahoratning o'ziga xos qirralarini ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: so'z, obraz, o'xshatish, metafora, qarshilantirish, badiiy san'at.

KIRISH

Adabiyotning eng muhim vazifalaridan biri inson qalbiga ta'sir etuvchi chuqur badiiy obrazlarni yaratishdir. Bu jarayonda so'zning estetik imkoniyatlari va obrazning ma'no ko'lamenti kengaytirish asosiy o'rinni tutadi. Shu nuqtayi nazardan, XX asr o'zbek she'riyatining yirik namoyandasi Abdulla Oripov ijodida so'z va obrazning o'ziga xos talqini muhim ilmiy mavzulardan biridir. Shoир o'z she'rlari orqali insonning ichki kechinmalari, milliy ruh va umumbashariy g'oyalarning poetik ifodasini yaratib, o'zbek adabiyotining estetik salohiyatini yangi bosqichga olib chiqdi. Abdulla Oripov she'riyatida so'zning poetik ma'nosi uning badiiy tasvir vositasi sifatidagi funksiyasi bilan uzviy bog'liq. Shoир she'rlarida so'z nafaqat ma'no ifodalovchi birlik, balki yangi obrazlarni yaratuvchi qudratli poetik vositadir. Ayniqsa, o'xshatish, qarshilantirish, metafora, takror va ramzlar orqali so'zning ta'sir doirasi kengayadi. Bu usullar shoirning har bir she'rida chuqur falsafiy mazmun kasb etib, o'quvchida kuchli estetik kechinmalar uyg'otadi. Ayniqsa, xalq maqollari va aforizmlarining ijodiy qo'llanilishi Abdulla Oripov poetikasining o'ziga xos jihatlarini namoyon etadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, hozirgi davrda so'zning obraz yaratishdagi o'rni, badiiy san'atlarning estetik vazifasi ilmiy-nazariy tahlilni talab qiladi. Shu jihatdan, Abdulla Oripov she'riyatidagi so'z va obrazning o'zaro aloqasi, ularning shoir poetikasidagi ma'nodoshligini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi – A. Oripov she'riyatidagi so'z va obrazning poetik mohiyatini ilmiy tahlil qilish, ularning badiy-estetik vazifasini aniqlashdir. Maqola natijalari she'riyatning poetik xususiyatlarini yanada chuqurroq o'rganish va A. Oripov ijodining badiy-estetik qirralarini ochib berishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Abdulla Oripov she'riyati bo'yicha adabiyotshunoslikda qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ularda shoirning badiiy mahorati, poetik tafakkuri va she'riy uslubi chuqur o'rganilgan. O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov, akademiklar M.Qo'shjonov, B.Nazarov, adabiyotshunoslari

Ibrohim G'afurov, Suvon Meli kabi olimlar A. Oripov ijodidagi poetik tasvir, ramz, xalq maqollari va aforizmlardan foydalanish kabi jihatlarni atroflicha tahlil qilganlar. Jumladan, N. Afoqova shoir she'riyatidagi o'xshatish, qarshilantirish va metafora kabi badiiy san'atlarning rolini maxsus o'rganib, shoirning o'ziga xos tasvir uslubini aniqlashga hissa qo'shgan.

Shuningdek, M. Rahmonova A. Oripovning she'riy tilini, undagi hayotiylik va badiiy butunlik masalasini tahlil qilgan bo'lsa, G. Ashurova shoirning obrazlar tizimi, shoirlar mahoratini chuqur tadqiq qilgan. A. Hamdamov A. Oripov she'riyatidagi poetik tafakkur va xalqona obrazlar talqinini tahlil qilishga e'tibor qaratgan. Ushbu ilmiy manbalar A. Oripov she'riyatining o'xhashlik, qarshilantirish, metafora, ramz va timsollar orqali boyitilganini isbotlaydi. Mazkur adabiyotlar ushbu maqola uchun muhim nazariy asos bo'lib, so'z va obrazning she'riy ijoddagi o'rni va funksiyasini ochib berishda asosiy ilmiy manba vazifasini o'taydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda ilmiy tahlil, qiyosiy-tipologik va semantik tahlil usullaridan foydalanildi. So'z va obrazning poetik xususiyatlarini o'rganishda adabiy-badiiy matn tahlili asosiy metod sifatida qo'llandi. A. Oripov she'rlaridagi o'xshatish, qarshilantirish va metafora kabi badiiy san'atlarning funksional o'rni qiyosiy yondashuv orqali tahlil qilindi. Shu bilan birga, xalq maqollari va aforizmlarining poetik tasvirdagi roli interpretatsiya metodi orqali ochib berildi. Tadqiqotning nazariy asosi sifatida adabiyotshunos olimlar O. Sharafiddinov, B. Nazarov, G. Ashurova va N. Afoqova tadqiqotlaridan foydalanildi.

Natija va muhokamalar. Abdulla Oripov she'riyati o'zbek adabiyoti rivojida yangi bosqichni boshlab bergen, unda so'zning badiiy obraz yaratishdagi funksiyasi alohida e'tiborga sazovordir. Shoir she'rlarida so'z faqat ma'noni ifodalovchi vosita emas, balki ichki ma'no qatlamlarini ochuvchi badiiy tasvir vositasidir. Abdulla Oripov so'zga badiiy vosita sifatida yondashib, undagi har bir tovush, ohang va ritmni aniqlik bilan ishlataladi. Uning she'rlarida so'zlarning mantiqiy-psixologik ta'siri kuchli bo'lib, ular orqali shoir o'quvchini she'riy tasavvur va hissiyot dunyosiga olib kiradi. Shoir she'rlarida oddiy so'zlarning ma'no jihatidan boyishi, ko'chma ma'no kasb etishi kuzatiladi. Bu jarayon o'xshatish, metafora, ramz va timsollar orqali amalga oshadi. Masalan, "Kuz manzaralari" she'rida kuz obrazining xazon rezilishiga o'xhatilishi orqali inson hayotidagi ma'naviy o'zgarishlar ifodalananadi. Bunda "xazon" faqat tabiiy holatni emas, insonning ichki kechinmalarini ham ifodalovchi obrazga aylanadi.

Abdulla Oripov she'riyatida o'xshatish, qarshilantirish, metafora, ramz va timsollar poetik tasvirning yetakchi vositalari sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, o'xshatish san'ati shoirning obraz yaratishdagi asosiy usullaridan biridir. O'xshatishlar ko'pincha konkret predmet va mavhum tushunchalar o'rtasidagi bog'liqlik asosida yuzaga keladi. Bu usul shoirga chuqur falsafiy xulosalarni badiiy tasvirga aylantirish imkonini beradi. Masalan, "Dorboz" she'rida dorbozning ip ustida yurgani kiprikdagi yosh va qilichning damiga o'xhatiladi. Ushbu tashbehtar o'xshashlikning tashqi ko'rinishidan ko'ra, ichki ma'no qirralarini ochib beradi. Shoirning o'xshatishlari ko'pincha original bo'lib, ular o'quvchida

kutilmagan ta'sir uyg'otadi. Bunda shoир har bir o'xshatishni obrazli tasavvur darajasida boyitadi.

Metafora A. Oripov she'riyatida poetik mazmunni chuqurlashtirishda muhim o'rin tutadi. Shoирning metaforalari ko'pincha insonning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari bilan bog'liq. Masalan, "Xazonlar yonadi" degan ibora kuz manzarasini ifodalovchi tasvir sifatida tushunilishi mumkin. Ammo bu metafora inson qalbidagi o'tanish, dard va ichki kurashning ramziy tasvirini ham beradi. Bu orqali shoир kuz obrazini ichki hissiyotlar manzarasi bilan bog'laydi. Ramzlar esa shoирning badiiy obrazlarini keng ma'no doirasida talqin qilish imkonini beradi. A. Oripov she'riyatida kuz, bahor, tun, quyosh, yulduz kabi tabiat tasvirlari ramziy ma'noda qo'llanilib, ular inson hayotining muhim bosqichlari bilan bog'lanadi. Masalan, bahor – yoshlik, kuz – keksalik, tun – qayg'u, quyosh – umid ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Bu ramzlar she'rning mazmuniy qatlamini boyitadi va o'quvchida kuchli poetik taassurot uyg'otadi.

A. Oripov she'riyatida qarshilantirish (tazod) vositasi orqali obrazlarning ichki ziddiyatlari ochib beriladi. Tazod usuli shoирning ma'naviy-falsafiy izlanishlarini ifodalashda katta ahamiyatga ega. Shoир hayotning o'zaro zid hodisalari, tushuncha va hissiyotlarning bir vaqtdagi mavjudligini mahorat bilan tasvirlaydi. Masalan, "Bahor-kuz" tazodi A. Oripov she'riyatida ko'p uchraydi. Bu tazod nafaqat yil fasllarining qarama-qarshiligini, balki inson umrining yoshlik va keksalik bosqichlarini ifodalaydi. Shoирning "Uyqu" she'rida "kurash" va "uyqu" o'rtasidagi tazod orqali insonning hayotiy maqsad va muammolari ifodalanadi. Kurash hayot timsoli bo'lsa, uyqu o'lim ramziga aylanadi. Bu tazodlar orqali shoир inson hayotining murakkab ziddiyatlarini ochib beradi.

A. Oripov she'riyatida takror san'ati ohang va ritm yaratishda, shuningdek, g'oyaviy maqsadni ta'kidlashda muhim rol o'ynaydi. Takror san'ati asosan she'rning asosiy g'oyasini ta'kidlash, o'quvchining e'tiborini muhim jihatlarga qaratish uchun qo'llanadi. Takrorlangan so'z va iboralar she'rning musiqiyligini oshiradi va o'quvchida hissiy ta'sir kuchini oshiradi. Masalan, "Dunyon qizg'anma, azizim" misrasining takrorlanishi shoирning o'z raqibiga nisbatan norozilik, kuchli g'urur va ma'naviy ustunlik tuyg'usini kuchaytiradi.

A. Oripov she'riyatida xalq maqollarari va aforizmlar keng qo'llanilib, ularga yangi ma'no yukланади. Shoир xalq maqollarini she'rning badiiy obrazini boyitish, o'quvchiga tanish bo'lgan tushunchalarni poetik kontekstdan kelib chiqqan holda o'zgacha ma'noda ochib berish uchun ishlatadi. Buning natijasida xalq maqollariga yangi ma'no beriladi va ularning ifoda doirasi kengayadi. Masalan, "Ezgulikni asrang, tojdor turna kabi bo'lmasin kamyob" misrasida "tojdor turna" obraqi kamyob va qadrli narsa ramziga aylanadi. Bu obraz orqali shoир ezgulikni himoya qilish zarurligini ta'kidlaydi. Xalq og'zaki ijodidan foydalanish shoирning she'rlariga milliy ruh va xalqona tafakkurni olib kiradi.

Abdulla Oripov she'riyatida so'z va obrazning uzviy bog'liqligi o'ziga xos poetik uslubni shakllantiradi. Shoир so'zning ma'noga boyligi, estetik qudrati va badiiy san'atlarning imkoniyatlaridan ijodiy foydalanadi. Shoирning o'xshatish, qarshilantirish, metafora, ramz, takror va xalq maqollaridan foydalanish mahorati o'zbek she'riyatiga chuqur estetik va falsafiy mazmun kiritdi. Bu ijodiy yondashuv A. Oripovni o'zbek

she'riyatida alohida o'rın egallagan shoir sifatida tanitadi. Tadqiqot natijalari shoir she'riyatining badiiy-estetik mohiyatini chuqur anglashga yordam beradi va o'zbek adabiyotshunosligida yangi yondashuvlarni shakllantiradi.

Xulosa. Abdulla Oripov o'zbek she'riyatining yorqin namoyandasini bo'lib, uning ijodi badiiy so'zning estetik qudrati, poetik tafakkur va badiiy san'atlarning keng qo'llanilishi bilan ajralib turadi. Shoirning she'riyatida so'z va obraz bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, so'zning ma'no ko'lamenti kengaytirish, unda ko'p qatlamlari mazmun hosil qilish orqali teran falsafiy g'oyalarni ifodalashga erishiladi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, A. Oripovning badiiy mahorati so'zning semantik imkoniyatlaridan ijodiy foydalanish va turli badiiy san'atlar yordamida o'ziga xos obrazlar yaratish mahoratida namoyon bo'ladi. Shoir ijodida so'z nafaqat ma'no ifodalovchi vosita, balki butun she'rni estetik jihatdan boyituvchi poetik birlik sifatida namoyon bo'ladi. Shoirning har bir so'zi o'z ma'nosidan tashqari, chuqur ramziy, metaforik va timsoliy ma'no kasb etadi. Bu jihat ayniqsa, "Kuz manzaralari", "Dorboz" kabi she'rlarda yaqqol ko'rindi. So'zning poetik imkoniyatlari o'xshatish, qarshilantirish, metafora va ramzlar orqali chuqur falsafiy mazmun kasb etadi. Shoir so'zga estetik qudrat bag'ishlab, o'quvchi qalbida kuchli hissiy ta'sir uyg'otishga erishadi.

A. Oripov she'riyatida obraz tasviriy badiiy vosita sifatida xizmat qilib, o'quvchining tasavvurini kengaytiradi. Shoir o'z obrazlarini tabiat manzaralari, inson kechinmalari va falsafiy mushohadalar orqali yaratadi. Kuz, bahor, tun, quyosh, daraxt, lola kabi tasvirlar orqali inson hayotining turli bosqichlari va ruhiy kechinmalari ifodalanganadi. Masalan, kuzning xazonlari faqat tabiatning bir qismi bo'lib qolmay, inson qalbidagi o'zgargan holatlar, his-tuyg'ularni ham aks ettiradi. Bunday usul bilan yaratilgan obrazlar chuqur ma'noni ochib berishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, shoir she'riyatida so'z va obrazning badiiy-estetik mohiyati o'ziga xos ijodiy yondashuvda namoyon bo'ladi. Shoir o'z ijodida o'xshatish, qarshilantirish, metafora, ramz, takror, xalq maqollari va aforizmlardan samarali foydalanib, o'zbek she'riyatining badiiy imkoniyatlarini kengaytirdi. Shoir so'zning ma'nodoshligini oshirib, obrazlarni yanada teranlashtirishga erishdi va shu bilan birgallikda shoir ijodida so'zning ma'no ko'lamenti kengaytirish, obrazlarning ko'p qatlamlari ma'nolarini ochib berish va badiiy san'atlarning imkoniyatlaridan ijodiy foydalanish o'ziga xos uslub sifatida namoyon bo'ladi. Bu uslub shoirning badiiy mahorati va ijodiy tafakkurining mahsulidir. Tadqiqot natijalari A. Oripov she'riyatining poetik mahoratini anglash, uning badiiy obrazlar yaratish usullarini chuqurroq o'rganish uchun muhim manba sifatida xizmat qiladi. Bu she'riyat o'zbek adabiyotiga ulkan badiiy-estetik yutuqlar olib keldi va shoirni adabiyotning buyuk vakillari qatoriga qo'shdi, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Afoqova N. Abdulla Oripov lirkasida badiiy san'atlar: Filol.fan.nomzodi...dis. – Toshkent : 1997. -B. 142 .
2. Ashurova G. Abdulla Oripov she'riyatida an'ana va badiiy mahorat (obraz, g'oya va tasvir). Filol.fanlari nomzodi....diss. avtoref.- Toshkent : 2008, -B. 26.

3. Aristotel. Poetika. Toshkent: “Adabiyot va san’at nashriyoti”, 1980. -B. 149.
4. Begimqulov D. She’riyatimiz yulduzi. // Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. 4 jildlik, 1 jild. –Toshkent : 2000.-B.432.
5. Vohidov R, Hoshimova M. She’riyat - shoir yuragi. Toshkent:“Fan”, 1987. -B. 68.
6. Jabborov I. Abdulla Oripov she’riyatida tarixiy shaxs talqini. -Toshkent: Fan, 2008. -B. 100.
7. Yo’ldoshev B. Qashqadaryo badiiyati. Toshkent: ”Sharq” NMK, 1998.-B. 464.